

SURXANDARYO VILOYATI TRANSPORT LOGISTIKASI**Qarshiyev Umid**

Buxoro davlat Pedagogika instituti

Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo'nalishi Talabasi

Annotatsiya: Surxandaryo viloyati O'zbekistonning janubiy hududida joylashgan bo'lib, Afg'oniston bilan chegaradosh hudud hisoblanadi. Hududning transport-logistik tizimi iqtisodiy rivojlanish va tashqi savdo aloqalarini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. Mazkur maqolada viloyat transport infratuzilmasi, uning rivojlanish istiqbollari va muammolari yoritiladi.

Kalit so'zi; Surxandaryo viloyati avtomobil, temir yo'l va havo transporti orqali tashuvlarni amalga oshiradi. Transport infratuzilmasi viloyatning ichki va tashqi aloqalarini ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi.

Viloyatda avtomobil yo'llari keng rivojlangan bo'lib, Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo va boshqa viloyatlar bilan bog'lovchi magistrallar mavjud. Ayniqsa, "Termiz - Dushanbe", "Termiz - Mozori Sharif" yo'nalishlari xalqaro ahamiyatga ega.

Surxandaryo viloyatida jami avtomobil yo'llari uzunligi 16 170 kilometrdan ziyod bo'lib, shundan 2 843 kilometri (17,6 foiz) umumfoydalanuvdagi avtomobil yo'llari qo'mitasi tasarrufida, qolgan qismi (13 327 km.dan ziyod) mahalliy hokimliklar balansida bo'lgan mintaqaviy yo'llardir.

Termiz shahri orqali o'tuvchi temir yo'l liniyalari strategik ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, "Termiz - Hayraton" temir yo'l o'tish punkti O'zbekiston va Afg'oniston o'rtasidagi savdo aloqalarini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi.

2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda umumfoydalaniladigan temir yo'llar uzunligi 4 839,7 km ni tashkil etgan. Shundan elektrlashtirilgan temir yo'llarning ulushi 40,1% bo'lib, Surxandaryo viloyatida elektrlashtirilgan temir yo'llar umumiy uzunligining 10,0% ini tashkil etadi.

Surxandaryo viloyatidagi temir yo'llarning umumiy uzunligi 301 km bo'lib, avtomobil yo'llari uzunligi esa 2,7 ming km ni tashkil etadi.

Termiz xalqaro aeroporti orqali ichki va xalqaro aviaqatnovlar amalga oshiriladi. Hozirda aeroport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yuk va yo'lovchi tashish hajmini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilmogda.

Termiz xalqaro aeroporti 1941-yil 6-martda tashkil etilgan. Hozirda ushbu aeroportdan O'zbekistonning ichki yo'nalishlari bilan bir qatorda xalqaro reyslar ham amalga oshiriladi. Xususan, Uzbekistan Airways aviakompaniyasi Termizdan Moskva (Vnukovo) va Sankt-Peterburg shaharlariga muntazam parvozlarni amalga oshiradi. Shuningdek, Air Samarkand aviakompaniyasi ham Termizdan xalqaro yo'nalishlarda parvozlarni amalga oshirmogda. Bundan tashqari, Termiz xalqaro aeroporti Afg'onistonga yaqinligi sababli, insonparvarlik yordami va yuk tashish operatsiyalarida muhim rol o'ynaydi. https://uz.wikipedia.org/wiki/Surxondaryo_viloyati

Surxandaryo viloyatining Afg'oniston bilan chegaradosh bo'lishi sababli, Termiz shahrida xalqaro logistika markazlari rivojlanmogda. "Hayraton" bo'xona punkti orqali yuk oqimlari boshqariladi va tranzit yuk tashish hajmi ortib bormogda.

Surxondaryo viloyati O'zbekistonning janubiy hududi bo'lib, transport-logistika markazlari va chegara o'tish punktlari bilan boy. Quyida ularning ba'zilar keltirilgan:

Transport-logistika markazlari:

Termiz Cargo Centre: Bu xalqaro ko'p funksiyali transport-logistika markazi Termiz tumanida joylashgan bo'lib, Afg'oniston chegarasidan 2 km masofada joylashgan. Markaz Galaba stansiyasidan 4 km uzoqlikda joylashgan bo'lib, uning hajmi va o'tkazuvchanligi bilan ajralib turadi.

Eksport logistika markazlari: Viloyatning 6 ta tumanida, xususan, Muzrabot, Angor, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Denov va Sariosiyo tumanlarida eksport logistika markazlari tashkil etilgan.

Chegara o'tish punktlari:

Gulbahor (Ayvaj): Bu xalqaro avtomobil yo'li o'tish punkti Surxondaryo viloyati, Termiz tumanida joylashgan bo'lib, kechayu-kunduz faoliyat yuritadi.

Sariosiyo (Bratstvo): Xalqaro avtomobil yo'li o'tish punkti bo'lib, Surxondaryo viloyati, Uzun tumanida joylashgan va kechayu-kunduz ishlaydi.

Amuzang (Xoshadi): Xalqaro temir yo'l o'tish punkti bo'lib, Surxondaryo viloyati, Termiz tumanida joylashgan va kechayu-kunduz faoliyat ko'rsatadi.

Shuningdek, Sariosiyo tumanida "O'zbek-Tojik chegara posti" yonida 6 gektar bo'sh yerda "Transport logistika markazi"ni barpo etish rejalashtirilgan.

Ushbu transport-logistika markazlari va chegara o'tish punktlari viloyatning logistika salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Transport-logistika tizimidagi muammolar va istiqbollar

Viloyatda yo'llarning eskirganligi, transport vositalarining yetishmovchiligi va logistika xizmatlarining rivojlanmaganligi kabi muammolar mavjud. Kelajakda yangi avtomobil va temir yo'l yo'nalishlarini qurish, chegara bojxona xizmatlarini takomillashtirish hamda transport-logistika markazlarini kengaytirish rejalashtirilmoqda.



2021 yilda xizmatlar tarkibida savdo (36,8%), moliya (19,5%) va transport (16,1%) xizmatlarining ulushi yuqori ko'rsatkichni qayd etgan. Shaxsiy xizmatlar, yashash va ovqatlanish (2,7%), kompyuterlar, shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash, ko'chmas mulk (2,6%), ijara va lizing (2,4%), sog'liqni saqlash (1,7%), me'morchilik, muhandislik va texnik (1,3%) xizmatlarning ulushi past tendensiyani tashkil qilgan. <https://review.uz/uz/post/2021-yil-yakunlari-boyicha-surxondaryo-viloyatida-xizmat-korsatish-sohasi-korsatkichlari>

Xulosa qilib aytganda Surxandaryo viloyati transport-logistika infratuzilmasi Markaziy Osiyoning janubiy mintaqasida muhim ahamiyat kasb etadi. Yangi investitsiyalar jalb qilish, logistika tizimini modernizatsiya qilish va tranzit imkoniyatlarini kengaytirish viloyat iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi rasmiy sayti – www.mintrans.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Transport infratuzilmasini rivojlantirish to'g'risida”gi qarorlari va farmonlari.
3. Bekmurodov I., Yo'ldoshev I. – “O'zbekiston transport tizimi va boshqaruvi, yo'nalishlari”, Toshkent 2021
4. Hasanov B. – “Transport logistikasi: qarashlar va rivojlanish yo'nalishlari”, Toshkent, 2020
5. Surxandaryo viloyati hokimligi rasmiy sayti – www.surxondaryo.uz
6. G'ulomov S., Qosimov A. – “Mintaqaviy transport tizimlari va logistika”, Samarqand, 2019 y.
7. “O'zbekiston transport axborotining istiqbollari”, O'zbekiston Milliy agentligi maqolalari
8. Sharipov K. – “O'zbekiston janubiy hududlari va transport iqtisodiyoti infratuzilmasi”, Termiz, 2022 y.